

**XALQARO HUQUQ MILLIY QONUNCHILIKNING DAVOMI SIFATIDA****Shodiyeva Irida Soatmurod qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro huquq va milliy huquq tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning tarixiy shakllanishi, nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, xalqaro huquqning milliy qonunchilikdagi o'rni va uning davomi sifatidagi mazmuni tahlil qilinadi. Muallif xalqaro huquq va milliy huquq o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni, shuningdek, ularning o'zaro ta'siri haqida dualistik va monistik nazariyalar nuqtai nazaridan fikr yuritadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro sud amaliyoti hamda xalqaro shartnomalar misolida xalqaro huquq normalarining milliy tizimga implementatsiya qilinishi yoritilib, xalqaro huquqning milliy huquq tizimining davomi sifatidagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, milliy huquq, monistik nazariya, dualistik nazariya, suverenitet, xalqaro shartnoma, xalqaro huquq manbalari, milliy qonunchilik, implementatsiya, huquqiy tizim.

**МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО В КОНТЕКСТЕ НАЦИОНАЛЬНОГО
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА****Шодиева Ириса Соатмурод кизи**Студентка Ташкентского государственного
юридического университетаE-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь международного права и национальных правовых систем, их историческое становление, теоретические основы и практическое значение. В частности, анализируется роль международного права в национальном законодательстве и его содержание как продолжения. Автор рассматривает сходства и различия международного права и национального права, а также их взаимодействие с точки зрения дуалистической и монистической теорий. В статье рассматривается имплементация норм международного права в национальную правовую систему на примере законодательства Республики Узбекистан, международной судебной практики и международных договоров, а также обосновывается роль международного права как продолжения национальной правовой системы.





Ключевые слова: международное право, национальное право, монистическая теория, дуалистическая теория, суверенитет, международный договор, источники международного права, национальное законодательство, имплементация, правовая система

INTERNATIONAL LAW AS A CONTEXT OF NATIONAL LEGISLATION

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Student of Tashkent State University of Law

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

Annotation: *This article discusses the relationship between international law and national legal systems, their historical formation, theoretical foundations and practical significance. In particular, the role of international law in national legislation and its content as a continuation are analyzed. The author considers the similarities and differences between international law and national law, as well as their interaction from the perspective of dualistic and monistic theories. The article highlights the implementation of international law norms into the national system using the legislation of the Republic of Uzbekistan, international judicial practice and international treaties as an example, and justifies the role of international law as a continuation of the national legal system.*

Keywords: *international law, national law, monistic theory, dualistic theory, sovereignty, international treaty, sources of international law, national legislation, implementation, legal system*

Kirish

Xalqaro huquq va milliy huquq o'rtasidagi aloqalar so'nggi yillarda jahon miqyosida juda ko'p munozaralarga sabab bo'layotgan muammolardan hisoblanadi. Xalqaro huquqning ta'siri va milliy qonunchilikdagi o'rni haqida xalqaro sudlar, olimlar va huquqshunoslar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Jumladan, huquq doktrinasida xalqaro huquq va milliy huquq munosabatlari haqida dualistik, monistik kabi nazariyalar mavjuddir. Shuningdek, ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi uchun ham juda dolzarbdir. Chunki xalqaro maydonda yuzaga keladigan ziddiyatlar milliy huquqdagi kabi milliy qonunchilik bilan tartibga solinmaydi. Shuning uchun ham ushbu maqolada xalqaro huquq va milliy huquq tizimining o'zaro aloqalarini, bu haqidagi olimlarning fikrlarini, nazariyalarini tahlil qilib, har ikki huquqiy tizim haqida fikr yuritiladi.

Metodlar

Ushbu tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy huquq tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqur tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi.





Avvalo, huquqiy tahlil usuli yordamida xalqaro huquq va milliy qonunchilikning o'zaro bog'liqligi, ularning normativ asoslari hamda huquqiy me'yorlarning tatbiqi o'rganildi. Mazkur usul orqali xalqaro shartnomalar, konstitutsiyalar, milliy qonunlar va xalqaro sud amaliyoti asosida xalqaro huquqning milliy tizimdagi o'rni aniqlab berildi. Shuningdek, qiyosiy (komparativ) tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan Germaniya va Fransiya kabi davlatlarning konstitutsiyaviy normalari solishtirildi. Bu yondashuv xalqaro huquqning turli huquqiy tizimlarda qanday talqin qilinishi va milliy qonunchilikka qanday tarzda implementatsiya qilinishini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, tarixiy-uslubiy yondashuv yordamida xalqaro va milliy huquqning shakllanish jarayoni, ularning o'zaro aloqalari haqida dualistik va monistik nazariyalar doirasida shakllangan ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv asosida xalqaro huquq va milliy huquq yagona huquqiy tizimning ikki mustaqil, ammo o'zaro bog'liq tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Yakuniy bosqichda mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari orqali tadqiqot natijalari tahlil qilinib, xalqaro huquqning milliy qonunchilikning davomi sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlovchi xulosalar ishlab chiqildi.

Muhokama va natijalar

Xalqaro huquq va milliy huquqning o'ziga xosligi

Xalqaro huquq va milliy huquq o'rtasidagi aloqalar va ularning o'zaro munosabati uzun tarixga ega. Chunki urug'-qabila munosabatlari parchalanib, ilk davlatlar vujudga kelganda xalqaro huquq ham paydo bo'ldi. Albatta, bu o'z-o'zidan milliy huquq ham vujudga kelganini anglatadi. Ammo yillar o'tgan sari ular haqida turli xil qarashlar, nazariyalar yuzaga kela boshladi. Ba'zilar bu ikki huquq tizimi alohida deyishsa, ba'zi olimlar aksincha xulosaga kelishgan. Shunga ko'ra, ularga yaxlit ta'rif berishmasa-da, ma'nosi bir-birini takrorlaydi. Ya'ni, "Xalqaro huquq bu – tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimi"⁵ bo'lsa, "milliy huquq bu – davlatning ichki huquqi" hisoblanadi. Xalqaro huquqda birlamchi xalqaro huquq subyekti bo'lmish davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinsa, milliy huquqda o'sha davlatlarning ichkarisida vujudga keladigan turli sohalaridagi munosabatlar tartibga solinadi. Ushbu ta'rif bir tomondan ularning har ikkisi huquq tarmog'i sifatidagi o'xshashligini isbot etsa, boshqa tomondan ularning farqini ham namoyon etmoqda. Undan tashqari, A.Saidov ta'kidlaganidek, "keng ma'noda qaraganda, xalqaro va milliy huquqning harakat doiralari ham bir-biriga juda yaqin bo'lib, ular o'z subyektlarining ijtimoiy munosabatga kirishishi jarayonini qamrab olsa, amaliy jihatdan, ularning qamrovi qanchalik yaqin bo'lmasin, ular baribir turlichadir"⁶. Demak, xalqaro huquq va milliy

⁵ Xalqaro ommaviy huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.d., prof.G. Yuldasheva// mualliflar jamoasi - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 19-bet

⁶ Xalqaro huquq. Ma'ruzalar kursi. A.Saidov - T.: TDYU nashriyoti, 2000. - 73-bet



huquq turli sohalarida amal qilishga asos bo'ladigan va bir-biriga bo'ysunmaydigan, ammo bevosita bog'liq bo'lgan mustaqil huquq tarmoqlaridir. Masalan, agar davlatlar qaysidir munosabatlarni o'z ichki milliy huquq tizimidagi normalar orqali hal etolmaganida, albatta, xalqaro huquq normalariga murojaat etishadi. Yoki aksincha, xalqaro nizolarni hal qilish jarayonida davlatlarning odat tarzida ichki tizimida qo'llab kelgan normalari Xalqaro Sud tomonidan e'tirof etilib, muammolarni hal qilishda foydalanishi ham mumkindir.

“Xalqaro huquq” va “milliy huquq”ning o'xshash va farqli xususiyatlari

Ba'zi manba⁷larda alohidalik xususiyatlari quyidagicha sanaladi:

1.Xalqaro huquq davlatning ichki munosabatiga kirmaydigan munosabatlarni tartibga soladi.

2.Xalqaro huquq normalari milliy huquq kabi qonun chiqaruvchi tomonidan emas, balki xalqaro huquq subyektlari tomonidan yaratiladi.

3.Xalqaro-huquqiy normalarning bajarilishi ham xalqaro huquq subyektlari tomonidan ta'minlanadi.

4.Xalqaro huquq manbalari xalqaro shartnoma yoki xalqaro odat shaklida bo'ladi.

5.Xalqaro huquq subyektlari davlatlar, xalqlar, davlatsimon tuzilmalar, o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro huquqda jazo yoki boshqacha ta'sir choralari ham milliy huquqdagidan farq qiladi. Amerikalik professor M. Makdugalga ko'ra, xalqaro munosabatlarda majburlashning quyidagi to'rtta vositasi bor: 1) diplomatik, shu jumladan, kuch bilan tahdid qilish; 2) mafkuraviy; 3) iqtisodiy; 4) harbiy.⁸

Demak, ularning alohida tarmoq sifatida qaralashiga asos bor ekan. Chunki A. Saidov aytganidek, xalqaro huquq va davlat ichki huquqi ikki mustaqil o'zaro bog'liq huquq tizimidir.⁹ Quyida o'sha belgilarni sanab o'tamiz:

1. Har birining alohida tartibga solish predmeti bo'lsa-da, xalqaro huquqning ham, milliy huquqning ham predmeti “davlat” bilan bog'liq munosabatligidadir;

2. Milliy huquq tizimi davlatning ichki doirasini tartibga solsa, xalqaro huquq davlatning tashqi doirasini tartibga soladi, boshqacha aytganda, o'z milliy huquqiga ega har qanday davlat xalqaro huquqda subyekt bo'ladi;

3. Agar milliy huquq manbalari mamlakat ichidagi munosabatlarni tartibga sololmasa, ya'ni hech qanday manba bo'lmasa yoxud xalqaro prinsiplarga zid bo'lsa, bevosita xalqaro huquq manbalarga murojaat qilinadi.

Milliy huquq va xalqaro huquq tizimi ikki mustaqil va o'zaro bog'liq huquq tizimlaridir. Shundan kelib chiqib, milliy huquq tizimi uchun baribir xalqaro huquq

⁷ Xalqaro ommaviy huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.d., prof.G. Yuldasheva// mualliflar jamoasi - T.: TDYU nashriyoti, 2018. - 41-bet

⁸ Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. I.Lukashik, A. Saidov. - T.: Adolat, 2006. 23-bet.

⁹ Xalqaro huquq. A. Saidov. 2018. 74-bet

normalari kerak bo'lishi yoki ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda ularning o'z milliy huquqining normalaridan kelib chiqib ish yuritishini, huquq va majburiyatlarini milliy huquq normalaridan xalqaro darajaga olib chiqib o'rnatayotgani ko'riladi. Boshqacha aytganda, milliy huquq xalqaro huquqqa bog'liqdir.

Xalqaro huquq va milliy huquq haqidagi nazariya va qarashlar

Huquq nazariyasida “xalqaro huquq” va “milliy huquq”ning o'zaro ta'sirining ko'rinishlari va xususiyatiga ko'ra turli xil nazariya va qarashlar shakllangan. Ularni ikki yo'nalishda guruhlash mumkin:¹⁰

1) dualizm: 19-asrda Tripel, Ansilotti, Kamarovski tomonidan ilgari surilgan. Uning mohiyati shundan iboratki, xalqaro huquq va davlat ichki huquqiga huquqiy tartibotning ikki shakli (bir-biriga bo'ysunmaydi) deb qaraladi. Tarafdorlarining fikricha, har bir huquq tizimining tartibga solish sohasi har xilligi tufayli ular o'rtasida hech qanday to'qnashuv kelib chiqmasligini ta'kidlashadi. Lekin vaqt o'tishi bilan dualistlar xalqaro huquq o'z vazifasini bajarishi uchun muttasil ravishda davlat ichki huquqidan yordam so'rashi zarurligini tan oladilar va nazariyalarini “dialektik dualizm” deb qayta nomlashadi. Zero, davlat ichki huquqining yordamisiz xalqaro huquq juda ko'p masalada ojizdir.

2) monistik: Kelzen, Russo, Kaufman tomonidan ilgari surilgan. Dualistik nazariyadan farqli ravishda, xalqaro huquq va milliy huquqdan birining ikkinchisidan ustunligini tan oladi. Ushbu nazariyani qo'llovchilar, asosan, 2ta yo'nalishda fikr berishadi. Ya'ni, ba'zilar xalqaro huquqni yuqoriroq ko'rsa, boshqalari esa xalqaro huquqni milliy huquqning davomi sifatida ko'radi.

Yuqoridagi 2 ta nazariya ba'zi manbalarda esa kengaytirilib “xalqaro huquq” hamda “milliy huquq”ning munosabati yuzasidan esa uch xil nazariya xalqaro huquq primati va ichki huquq primati mavjud¹¹, deya keltiriladi. Bunda monistik nazariyani 2 yo'nalishi alohida beriladi.

Milliy huquqning ustunligi haqidagi qarashlar bir qancha huquqshunolar tomonidan ilgari surilgan. Ular orasida J. Ostin va Kelzen kabi olimlar o'zlarining nazariyalarida milliy huquqning ustunligini ta'kidlaganlar. Ularning fikriga ko'ra, xalqaro huquq, asosan, milliy huquq tizimining bir qismi bo'lgani uchun milliy huquqqa yuqoriroq baho beriladi. Milliy huquqning ustunligi nazariyasi, odatda, davlatlarning ichki suverenitetiga qaratilgan bo'lib, xalqaro huquqni faqat ixtiyoriy ravishda, shartnomalar yoki kelishuvlar doirasidagina milliy huquqqa qabul qilinishini ko'zda tutadi. Xalqaro huquqning milliy tizimga moslashtirilishini muhim deb hisoblaydi, biroq bu jarayonda davlatning suverenitetiga zarar yetkazilmasligi

¹⁰ Xalqaro ommaviy huquq. Odilqoriyev. X.T., Ochilov B.E., 2017, 17-bet.

¹¹ Xalqaro huquq. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir y.f.d., prof. prof. H.B. Boboyev - T.: “Adolat”, 1997. - 58-bet

kerakligini ta'kidlaydi. Bunga 1974-yilgi Solange Case(1974)¹² misol keltiriladi. Chunki ushbu keysga ko'ra, Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi Yevropa Ittifoqi qonunlari agar milliy huquqqa zid kelsa, milliy huquq ustun bo'lishi ta'kidlanadi. Yoki bo'lmasa, S.S. Lotus Case(1927)¹³da Xalqaro sud, Turkiyaning o'z ichki ishlarini hal qilish huquqini tan oldi va Fransiyaning da'vo qilishi noqonuniy ekanligini ta'kidladi. Sud, xalqaro huquqda davlatlar o'rtasida suverenitet va o'zaro hurmat prinsiplarini muhim, deb hisoblaydi. Sudning qarori, Turkiya davlatining kema egasiga nisbatan sud yuritishi qonuniyligini tasdiqladi va xalqaro muomala doirasidagi davlatlarning o'z suverenitetini qanday himoya qilishini ko'rsatdi. Bunga sabab esa "davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik" va "davlatlarning suveren tengligi" prinsipi edi.

Xalqaro huquqning ustunligi haqidagi qarashlar milliy huquqni cheklab, xalqaro qonunlarning ustunligini tan oladi. Koskenniemi va Shav kabilar xalqaro huquqning global miqyosda mustahkamlanishini va uning milliy tizimlarga qanday ta'sir etishini o'rgangan olimlardan hisoblanadi. Koskennieminig "From Apology to Utopia" asarida xalqaro huquqning davlatlar o'rtasidagi adolatni ta'minlashdagi roli va xalqaro normalarning milliy huquqdan ustunligini haqida ma'lumotlar uchraydi. Xalqaro huquqning norma va qarorlari milliy qonunlardan ustun turadi va davlatlar o'z ichki qonunlarini xalqaro huquqqa moslashtirishlari kerak. Misol uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga ko'ra, BMT tashkil etilganidan keyin, a'zo davlatlar xalqaro huquqni o'z ichki qonunchiligiga kiritish va bajarish majburiyatini olganlar.¹⁴

Zamonaviylashgan munosabatlarda ikki huquq tizimining o'rni

Xalqaro huquq va milliy huquq shunday ikki huquq tarmoq ekanki, ular bir-birisiz to'liq bo'la olmaydi. Hozirgi zamonaviy globallashuv davrida ham juda ko'plab munosabatlarda ularning to'qnash keladi. Ammo o'tmishda xalqaro huquq manbalari bo'lmish xalqaro odatlarni shakllantirib bergan milliy huquq normalari bugunga kelib teskarisini ko'rsatmoqda. Ya'ni, har bir davlat o'z milliy qonunchiligiga xalqaro huquq normalarini tatbiq etmoqda. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarini deyarli butun dunyo davlatlari (O'zbekiston ham) o'z Konstitutsiyalarida belgilab qo'yishgan. Xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi quyidagicha:

1)BMT Nizomi. Ushbu Nizom nafaqat milliy huquq tizimi, balki xalqaro huquqning eng asosiy manbasi bo'lgani bois barcha ushbu hujjatni milliy huquq tizimiga tatbiq etgan.¹⁵

¹² Germaniya Federal Konstitutsiya sudi, 1974 yil 29-maydagi qarori, BvL 52/71, 41-56 paragraflar

¹³ The "Lotus" Case, 7 September 1927. PCIJ A., No. 10. 1927, available at https://www.icj/cij.org/public/files/permanent-court-of-international-justice/serie_A/A_10/30_Lotus_Arret.pdf .

¹⁴ BMT Nizomi. 1945-yil. <http://www.un.org/>.

¹⁵ BMT Nizomi. 1945-yil. <http://www.un.org/>.



2)Konstitutsiyalar. GFR Asosiy Qonunining 25-moddasiga binoan “xalqaro huquqning umumiy qoidalari Federatsiya qoidalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular qonunlar oldida ustuvorlikka ega va Federatsiya hududida aholi uchun bevosita huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi”¹⁶. Yoki bo‘lmasa, Fransiyaning 1958-yildagi Konstitutsiyasining 55-moddasida: “O‘rnatilgan tartibda ratifikatsiya qilingan yoki ma’sullangan shartnomalar yoki bitimlar ichki qoidalaridan yuqori kuchga ega...”¹⁷, deb yozib qo‘yilgan. Hatto O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida belgilab qo‘yganidek, tashqi siyosatini “davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslan”¹⁸gan holda olib boradi. Bundan kelib chiqadiki, O‘zbekiston xalqaro huquqning to‘la huquqli subyekti va xalqaro normalarni tan olgan holda ularni milliy huquq tizimida ham manba sifatida ko‘rsatadi.

3)O‘zbekiston Respublikasi “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonun. Ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan munosabatga kirishishi uchun xalqaro huquq, ya’ni xalqaro shartnomalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu shartnomalar xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.¹⁹ Bundan kelib chiqadiki, xalqaro huquqda manba sifatida keluvchi “xalqaro shartnoma” milliy huquq tizimida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligini anglatadi.

4)O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Ushbu kodeksning vazifasi xususiy shaxslar o‘rtasidagi mulkiy hamda nomulkiy munosabatlarni tartibga solish bo‘lsa-da, ushbu kodeks 7-moddasida ta’kidlanganidek: “Agar xalqaro shartnomalar va bitimlarda fuqarolik qonunchiligidagidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnomalar va bitimlardagi qoidalar qo‘llaniladi”²⁰. Demak, hatto ushbu soha ham milliy huquq tizimining takibiy tarmog‘i sifatida xalqaro huquqni ham o‘z ichiga olar ekan.

5)O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Ushbu kodeksning vazifasi mamlakatdagi jamiki ijtimoiy xavfli qilmishlar va ularga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralarini belgilash hisoblanadi. Ammo 1-moddada ko‘rsatib o‘tilganidek, “O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiligi

¹⁶ Xalqaro huquq. Darslik. A.X. Saidov - T.: “Adolat” O‘zR Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2001. - 30-bet

¹⁷ Constitution of France, 1958, article 55.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023, available at www.lex.uz.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi “Xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonun, available at www.lex.uz.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — Toshkent. 1996, 7-bet



Konstitutsiya va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalariga asoslangan bo'lib, ushbu Kodeksdan iboratdir"²¹. Bundan kelib chiqadiki, Jinoyat kodeksi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarini to'g'ridan-to'g'ri asos sifatida keltirib o'tmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, dunyo davlatlari Konstitutsiyalari hamda O'zbekiston milliy huquq tizimidagi qonunchilik asosida xalqaro huquq milliy huquq tizimiga bog'liq, deya olamiz. Chunki xalqaro huquq milliy huquqda o'z aksini topadi hamda milliy huquq tizimining davomi sifatida davlatning ichki ijtimoiy munosabatlarini ham tartibga solishga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosaga kelimiz:

birinchidan, xalqaro huquq va milliy huquq sohalari bir-biriga bog'liq, ammo alohida bo'lgan huquq sohalaridir;

ikkinchidan, ilmiy-nazariy asoslarga ko'ra, 2 (3)ta nazariya mavjud bo'lsa, tahlillar davomida milliy huquqning davomi xalqaro huquq emas, xalqaro huquqning davomi milliy huquq, degan xulosani olish ham mumkin bo'ladi. Ya'ni xalqaro huquq go'yo milliy huquqning davomi sifatida, faqat milliy huquqqa kiritilgandagina emas, balki butun normativ qoidalar asosi sifatida namoyon bo'lmoqda;

uchinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, agar milliy huquq normalarida xalqaro umume'tirof etilgan yoki xalqaro shartnomalarida keltirilgan normalardan boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lsa, albatta, xalqaro huquq ustunlikka ega bo'ladi. Bu degani nizolarni hal etish milliy huquqdan boshlanib, baribir xalqaro huquq bilan davom etadi deganidir.

Demak, umumiy xulosa qilib aytganda, haqiqatan ham "xalqaro huquq milliy huquqning davomi sifatida" degan g'oyaning kelib chiqishiga sabab xalqaro maydonga ba'zi milliy odat normalarining tan olinishi bo'lishi ham mumkin. Ammo monistik nazariyaning teskari oqimini qo'llab-quvvatlovchilarning fikrlari hozirgi zamonaviy huquqda ko'proq ko'zga tashlanmoqda.

²¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. — Toshkent. 2024, 3-bet.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldasheva, G. (mas'ul muharrir). (2023). Xalqaro ommaviy huquq: Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 19-bet.
2. Saidov, A. (2000). Xalqaro huquq: Ma'ruzalar kursi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 73-bet.
3. Yuldasheva, G. (mas'ul muharrir). (2023). Xalqaro ommaviy huquq: Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 19-bet.
4. Yuldasheva, G. (mas'ul muharrir). (2018). Xalqaro ommaviy huquq: Darslik. Mualliflar jamoasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 41-bet.
5. Lukashik, I., & Saidov, A. (2006). Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Toshkent: Adolat, 23-bet.
6. Saidov, A. (2018). Xalqaro huquq. 74-bet.
7. Odilqoriyev, X. T., & Ochilov, B. E. (2017). Xalqaro ommaviy huquq. 17-bet.
8. Boboyev, H. B. (mas'ul muharrir). (1997). Xalqaro huquq: O'quv qo'llanma. Toshkent: Adolat, 58-bet.
9. Germaniya Federal Konstitutsiya sudi. (1974, 29-may). Qaror, BvL 52/71, 41-56 paragraflar.
10. The Lotus Case (7-sentabr, 1927). PCIJ A, No. 10. 1927. Available at: https://www.icj/cij.org/public/files/permanent-court-of-international-justice/serie_A/A_10/30_Lotus_Arret.pdf.
11. Umirdinov, A. I., & Xakimov, A. M. (2018). Xalqaro ommaviy huquq bo'yicha sud amaliyoti (keysar to'plami): O'quv qo'llanma. Toshkent: TDYU nashriyoti.
12. BMT Nizomi. (1945). Available at: <http://www.un.org/>.
13. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (1996). Toshkent, 7-bet.
14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (2024). Toshkent, 3-bet.
15. Saidov, A. X. (2001). Xalqaro huquq: Darslik. Toshkent: "Adolat" O'zR Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 30-bet.
16. Constitution of France. (1958). Article 55.
17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Available at: www.lex.uz.
18. O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonun. Available at: www.lex.uz.